



## **SUG'D TARIXI O'RGANILISHIDAGI AYRIM MULOHAZALAR**

Axmadov Dovudxon Xabibulloyevich  
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti  
+998915226226  
dovudxon.axmadov.xon@gmail.com

Bugungi O'zbekiston hududining markaziy mintaqasini tashkil etgan tarixiy Sug'd tarixi yuz yildan ko'proq vaqt davomida o'rganib kelinmoqda.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab esa fanga ma'lum manbalarni (asosan arabiy, forsiy va xitoy manbalari) umumlashtirish asosida bir qator tadqiqotlar yuzaga kela boshlaganligi ma'lum. Ayni mana shu davrdan boshlab Sug'd tarixi o'rganish boshlangan deyish asoslidir. 1877 yilda V.Tomashek xitoy va arab-fors manbalari asosida qadimgi Sug'd va o'rta asr Sug'dining tarixiy-geografik va siyosiy xaritasini tiklash maqsadida birinchi monografik tadqiqotni chop ettirdi<sup>1</sup> hamda xitoy yilnomalari asosida Sug'dning boshqaruviga oid bir qator xulosalarini ilgari surgan.

Sug'ddagi boshqaruv va mazkur boshqaruvning huquqiy asoslari va sug'diy hukmdorlarning tanga zarbi to'g'risida muhim fikrlar numizmat olimi O.I.Smirnova tomonidan ilgari surildi. Ushbu tadqiqotlarning qiyosiy tahlil asosida olimi o'zining qator ilmiy qarashlarini ilgari surdi<sup>2</sup>. Olimi V.V. Bartoldning Sug'd boshqaruvining mohiyatiga doir fikrlarini rad etib<sup>3</sup>, olimning Syuan-Szanning Chu daryosidan Sug'dlar mamlakati boshlanadi degan fikriga izoh berib o'tdi. 1970 yilda chop etilgan «Sug'd tarixidan lavhalar» kitobida O.I.Smirnova Sug'dning ilk o'rta asrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hamda hukmdorliklarning ma'muriy tuzulishini sug'd, arab, fors va xitoy tilli manbalar asosida tahlil qildi<sup>4</sup>. Mazkur kitobda turli mazmundagi hujjatlar, epigrafik yodgorliklar, sug'd tangalari tadqiqotlari o'z aksini topdi. Tadqiqotda Sug'd jamiyati tarkibi, davlatning

<sup>1</sup> Tomashek W. Sogdiana. Central Asiatische Studien I. (Sitzungsber, der Phil - hist. Classe der Kais - Kön. Akad. Der Wissensch. LXXXVIII. – Wien, 1877. – 187 p.

<sup>2</sup> Smirnova O.I. Каталог монет с городища Пенджикент. –М.: Наука, 1963. –С. 24-26; Smirnova O.I. Очерки из истории Согда. – Москва: Наука, 1970. – С. 10-12; Smirnova O.I. Сводный каталог согдийских монет. Бронза. – Москва: Наука, 1981. – С. 18.

<sup>3</sup> Бартольд В.В. Согд // Собрание сочинений. Т.III. -М.: Наука, 1965. -С. 487-488.

<sup>4</sup> Smirnova O.I. Очерки из истории Согда. –М.: Наука, 1970. –288 с.



## International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24<sup>th</sup> December, 2024

boshqaruv tizimi pogʻonalari, ichki iqtisodiy hayoti va mamlakatning arablar tomonidan bosib olinishi kabi masalalarga alohida eʻtibor qaratildi. O.I. Smirnova oʻzining yuqorida qayd etilgan «Katalog»ida Sugʻd bronza tangalari tadqiqotlari asosida oʻlkaning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy hayotiga oid bebaho maʼlumotlar berdi<sup>5</sup>. Xususan, davlatning boshqaruv tizimi, uning pogʻonalari, jamiyatning tabaqalari, Sugʻd konfederativ davlati tizimi doirasida viloyatlarning davlat bilan va oʻzaro munosabatlari, ichki bozorning ahvoli, mamlakatning xoʻjaligiga oid koʻplab faktik materiallar oʻz aksini topdi.

Oʻtgan asrning boshlariga kelib V.V.Bartold, A.Yu.Yakubovskiy va Afrosiyobda ish olib borgan tadqiqotchilarning Samarqand tarixi va shu asnoda Sugʻd tarixiga oid asarlari vujudga keldi. Xususan, sharqshunos V.V.Bartold oʻz asarlarida ulkan miqdordagi manbalarni jalb etish orqali Turonzamin boʻyicha boshqaruv tarixiga oid bir qatorda Markaziy Osiyoning ijtimoiy va etno-siyosiy tarixini davrlashtirish hamda hududiy aloqadorligini koʻrsatish yuzasidan oʻz xulosalarini ilgari surdi<sup>6</sup>. Sugʻd boshqaruvi va mahalliy hukmdorlarning tanga zarblariga doir qimmatli tadqiqotlar E.V.Rtveladze tomonidan ham amalga oshirilgan boʻlib<sup>7</sup>, olimning ishlari turli tillardagi manbalarni oʻzida jamlaganligi bilan anchayin originallik kasb etadi.

XX asr oʻrtalaridan buyon chop etib kelingan akademik nashrlarda, jumladan, 1950 yilda nashr etilgan «Oʻzbekiston xalqlarining tarixi» nomli tadqiqotda biz oʻrganayotgan davr boʻyicha yozma manbalar tahlili asosida bir qator qimmatli maʼlumotlar keltirilgan<sup>8</sup>. Xususan, tadqiqotning I tomining 1-qismida Turk xoqonligining Markaziy Osiyodagi hukmronligi ostida oʻz mustaqil siyosatini yuritgan mayda mustaqil va yarim mustaqil davlatlarning davlat boshqaruv asoslari, tarixiy-geografiyasi, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy hayoti yoritiladi. Jumladan, xitoy manbalari asosida VI-VII asrlarda Zarafshon, Qashqadaryo va Amudaryo vohalarida mustaqil toʻqqiz hokimiyatning (Samarqand, Maymurgʻ, Kesh, Naxshab, Ishtixon,

<sup>5</sup> Смирнова О.И. Сводный каталог согдийских монет. –М: Наука, 1970. –548 с.

<sup>6</sup> Бартольд В.В. Очерки истории Семиречья. Сочинения. Т.II. –М.: Наука, 1963. –С. 104.

<sup>7</sup> Ртвеладзе Э.В. Монеты Тункуанда (Тунката) и других владений // Нумизматика Центральной Азии. Сборник статей. – Ташкент, 2002. – Вып. IV.- С.208; Ртвеладзе Э.В. Цивилизации, государства, культуры Центральной Азии. – Ташкент, 2005. – С. 22.

<sup>8</sup> История народов Узбекистана. (Под ред. С.П.Толстова, В.Ю.Захидова и др.). Т. I. –Ташкент: Изд-во АН УзССР. 1950. – 474 с.



## International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24<sup>th</sup> December, 2024

Kushoniya, Buxoro, Amul va Andxoy) mavjud bo'lganligi va hukmdorlarining «Kan» nomli yagona sulolaga mansub bo'lganligi, hamda «Chjaou» unvoniga ega bo'lganligi ta'kidlanadi<sup>9</sup>. Shuningdek, tadqiqotda o'lkaning xo'jalik va madaniy hayotiga alohida o'rin ajratilgan. Tadqiqotning «O'rta Osiyoning arablar tomonidan bosib olinishi» nomli II bobida arablarning bosqinchiligi arafasida o'lkadagi siyoiy vaziyat, arablarning harbiy yurishlarining umumiy jihatlari xitoy, arab va fors manbalari asosida yoritilgan.

B.G'. G'ofurov tahriri ostida nashr etilgan «Tojik xalqi tarixi» nomli monografiyaning I bobida asosiy e'tibor ilk o'rta asrlarda mulkiy munosabatlarning shakllanishiga ta'sir o'tkazgan ijtimoiy-iqtisodiy omillarning tahliliga qaratilgan<sup>10</sup>. Xususan, tadqiqotchi arab, fors, xitoy, sug'd yozma manbalari, hamda arxeologik materiallarni jalb qilgan holda Sug'd va ilk o'rta asrlarda faoliyat ko'rsatgan mahalliy davlatlarning boshqaruv asoslariga to'xtalib o'tgan. Shuningdek, monografiyada asosiy e'tiborni Markaziy Osiyoning VI-VIII asrlardagi siyosiy hayotiga qaratadi. Xususan, tadqiqotda Sug'd konfederatsiyasi tushunchasining qo'llanilishi, unga birlashgan 8 ta yarim mustaqil mulklarning o'zaro va Turk xoqonligi bilan munosabati, konfederatsiya tepasida turgan Samarqandning o'lka siyosiy jarayonlaridagi roli, tarixiy-geografiyasi va ma'muriy tuzulishi, ijtimoiy munosabatlarda patriarxal oila mulkchiligining ustunligi kabi bir qator masalalar xitoy va arab manbalari asosida keng tahlil etilgan<sup>11</sup>. Ishda Markaziy Osiyo kichik davlatlarining boshqaruv asoslariga olim anchayin e'tibor qarartgan. Olimning ushbu fikrlari uning keyingi tadqiqotlarida ham aks etgan<sup>12</sup>. Ishning «O'rta Osiyo xalqlarining arab bosqinchilariga qarshi kurashi» deb nomlangan II bobida arablar bosqini arafasida O'rta Osiyoda, xususan Sug'ddagi siyosiy vaziyat, konfederatsiya tarkibidagi mulklarning o'zaro munosabatlari, Qutayba ibn Muslimning Poykand, Buxoro, Samarqand kabi shaharlarga harbiy yurishlari va unga qarshi xalqning milliy ozodlik harakatlari, xususan arblarga qarshi kurashda Devatich va G'urakning o'zaro munosabatlari, qolaversa o'lkada kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning ba'zi qirralari ko'rsatilgan.

<sup>9</sup> История народов Узбекистана... –С. 139-152.

<sup>10</sup> История таджикского народа. (Под ред. Б.Г.Гафурова). Т. II, книга 1. М.: Наука, 1964. –492 с.

<sup>11</sup> История таджикского народа... –С. 44-52.

<sup>12</sup> Гафуров Б.Г. Таджики. Древнейшая, древняя и средневековая история. – Душанбе: Ирфон, 1989. – С. 280.



## International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24<sup>th</sup> December, 2024

Tarixchi olim Azamat Ziyoning «O‘zbek davlatchiligi tarixi» nomli monografiyasida qadim va ilk o‘rta asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni turli tillardagi yozma yodgorliklar, yaqin o‘tmish va mustaqillik davri tarixshunosligi yutuqlari asosida O‘zbekiston hududidagi davlatchilik qadimiy tarix va uzoq taraqqiyot yo‘liga ega ekanligini ilmiy tahlil etdi<sup>13</sup>. Tadqiqotda o‘rganilayotgan mavzuga doir umumiy fikrlar keltirilgan.

2001 yilda O‘zR FA Tarix instituti tomonidan «O‘zbekiston davlatchiligi tarixidan lavhalar» nomli monografiya chop etildi<sup>14</sup>. Ushbu monografiyada O‘zbekistonning qadimdan to XX asr boshlariga qadar bo‘lgan davlatchiligi tarixiga oid lavhalar jamlandi. Ularda boy faktik, manbaviy va arxeologik materiallar asosida birinchi marotaba keng miqyosda O‘zbekiston hududida qadimdan davlatlarning vujudga kelishi jarayonlari va sabablari, inqiroziy va rivojlanish holatlari tahlil etilgan.

Ilk o‘rta asrla Sug‘ddagi davlat boshqaruvi va uning ma’naviy huquqiy asoslari sug‘dshunos olimlar M.Is’hoqov, A.Ataxodxayev, G‘.Boboyorov kabi olimlarning tadqiqotlarida anchayin o‘rganilgan bo‘lib<sup>15</sup>, ularning tadqiqotlari manbalarga asoslanilganligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, muammo yuzasidan sug‘dshunos B.S.G‘oyibov tadqiqotlari ham ilmiy ahamiyatga ega bo‘lib, tadqiqotchining ishlari asosan Sug‘dning siyosiy va mintaqaning boshqaruv tarixini tadqiq etishga qaratilgan. Sug‘d siyosiy tarixini o‘rganish asnosida tadqiqotchi tomonidan Sug‘d hukmdorliklarining tarixiy-geografiyasi va ularning tuzulishi ham tadqiqotchi nazaridan chetda qolmagan.

<sup>13</sup> Зиё А. Ўзбек давлатчилиги тарихи. –Т.: Шарк. 2000. –366 б.

<sup>14</sup> Ўзбекистон давлатчилиги тарихидан лавҳалар / Масъул муҳаррир Д.А.Алимова, Э.В.Ртвеладзе. –Тошкент: Шарк. 2001. – 207 б.

<sup>15</sup> Исҳоқов М. Унутилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992; Отаҳўжаев А. Илк ўрта асрлар Марказий Осиё цивилизациясида турк-суғд муносабатлари. – Тошкент: 2010; Бобоёров Ф. Турк хоқонлиги давлат бошқарув тузуми: тарих фанлари бўйича докторлик диссертацияси автореферати. – Тошкент: 2012.